



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI O'STIRISH

*Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli  
yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz*

**Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li**

*Teacher of Uzbek-Finnish Pedagogical*

*Institute, Uzbekistan*

*faxriddinov.muhammad@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Chizmachilik fani orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va taraqqiyoti.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lif sistemasi, maktab, zamonaviy dasturlar, rasm, tasviriyl san'at, chizmachilik, arxitektura, chiziq, rang, ritm, simmetriya, assimmetriya.*

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala bo'lib hisoblanadi deb, bejizga bot - bot, takror va takror aytib o'tmagan edilar muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev[2].

Darhaqiqat mustaqil fikrlash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, o'z ichki ijodkorlik qobiliyatlarini nomoyon qila olish, zamonaviy texnologiyalardan unumli va samarali tarzada foydalanish hozirgi shiddatli zamonning muhim bir vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Hozirgi globallashuv zamonida har bir inson resurslarining bilim darajasini baholashda, bu asoslar muhim ro'l o'yamoqda. Biz zamonaviy pedagoglarning vazifasi esa bunday yosh kadrlarni raqobatbardosh bo'lib yetishib chiqishida o'z hissamizni to'laqonli ado etishimizda, biz pedagoglarning ham bunday zamonaviy texnologiyalardan o'tayotgan darslarimizda unimli va sermaxsul foydalana bilishimiz lozim.

Muhtaram prezidentimizning: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq[3] deb aytib o'tgan gaplarida juda ham ko'p ma'no bor. Har kimning tarbiyasi - o'z uyidan boshladi deb bekorga aytilmagan. Biz pedagoglar ham o'z talabalarimizga yoshligidanoq ta'lif -tarbiya berib kelamiz, ularga hayotning yangidan- yangi qirralarini o'rgatishga harakat qilamiz. Buning samarasini yanada



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

oshirish maqsadida talabalarimizga bundanda ko'proq va qiziqarliroq ma'lumotlar berishimiz, ularni tushinishlarida yordamlashishimiz lozim, qolaversa o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini, ichki hali uyg'onmagan qirralarini nomoyon qilishida turtki bo'lishimiz lozim. Shunda biz haqiqiy zamonaviy pedagoglar bo'lib hisoblanamiz desam yangilishmagan bo'laman. [3]

Bugungi kun biz pedagoglardan ta'lim-tarbiya berishning yangi usullarini ishlab chiqish, fanlararo bog'lanish(integrasiya)ni kuchaytirish, ijodkorlik va erkin, hamda har tomonlama mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni talab etadi.

Institatlarda (ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarda) chizmachilikdan o'quv mashg'ulotlarini samarali pedagogik texnologiyalar, yangicha yondashuvlar bilan boyitib borishdan tashqari, berilgan vazifalarni imkon darajasida sodda tilda, hammabop ya'ni talabalar ommasiga tushinarli bo'ladigan tarzda o'tish bugungi zamon talablaridan biridir.

Hozirgi zamon talabalariga qanday ta'lim-tarbiya bermoq lozim?! Ularni qanday usulda o'qitish yaxshiroq samara beradi, chizmachilik fanini ularga qanday o'rgatish kerak degan savollarga javob topmoq biz o'qituvchi-pedagoglar oldiga muhim bir vazifalar yuklaydi. Bunda biz o'qitishda tub burilish qilmog'imiz, ta'lim texnologiyasining hamda o'qitish metodlarining yangicha turlarini ishlab chiqmog'imiz lozim bo'ladi. Kundan kunga rivojlanib borayotgan mamlakatimiz ravnaqiga biz pedagoglar o'z xissamizni qo'shish uchun bugungi kun talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib bermog'imiz lozim.

Chizmachilik fani orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter dasturlaridan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligini o'rganish. Ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish etishda kompyuter dasturlarining o'rni va ahamiyati. Power point va Corel Draw dasturlarining chizmachilik fanlarining o'qitilishidagi samaradorligini aniqlash. [4]

O'rta ta'lim institutlar, ixtisoslashtirilgan muassasalari(sinflar)dagi chizmachilik dars jarayoni. Ulardagi chizmachilik faning o'tilishida kompyuter savodxonligini oshirish, bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning maqsad - umumta'lim institutlari (ixtisoslashtirilgan institutlari)da chizmachilik fani orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter dasturlaridan foydalish metodikasini shakllantirish asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish. [5]

Tadqiqotning vazifalari:



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

- Chizmachilik fanlarini amaliy hamda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda dars olib borilishini o'zaro taqqoslash;

- Ba'zi sodda detallarni chizishda tanlangan dasturlar asnosida ko'rsatib berish;

- Hayotda chizmachilik fanining nafaqat qurilish va texnika sohasida, balki talabalarning ijodkorlik qobilyatlarini namoyon qilishda ham ko'makchi bo'la olishini ko'rsatib o'tishdan iborat.

Bir so'z bilan aytganda chizmachilik fani orqali talabalarning ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirishda kompyuter dasturlaridan foydalish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi - umumiy o'rta va oliy ta'lim - muassasalarida chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish bosqichlari(ijodkorlik, novatorlik) hamda dasrlarda fanlararo integratsiyani kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratilgan ; [6]

- ba'zi chizmalarning chizishning kompyuter dasturidan foydalanishning amaliy tarzda ishlangan ishlardan birmuncha qulay ekanligini ko'rsatib o'tilgan;

- talabalarga sodda shakldagi detallarning tadqiqotga tavsiya etilgan usullar yordamida mustaqil ravishda bajarib ko'rsin. Muammoni xal etishning noan'anaviy usulidan foydalanish umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning salohiyatini yanada ohib berish, ularni ijodkorlik qobilyatlarini yuzaga chiqarish, mustaqil tadqiqotlar olib boorish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari - Chizmachilik, chizmachilik fanlari tizimi va me'morchilik bilan bog'liq faoliyat turlari yangicha metodik ko'rsatmalar yordamida tashkil etilsa, ta'lim sifati samaradorligiga erishish mumkin,agar:

- chizmachilik fanlarini o'tishda kompyuter dasturlaridan samarali hamda uslubiy vositalar yordamida talabalarga o'rgatilsa;

- talabalarning ijodkorlik mahoratlarini yuksaltirishga bo'lgan farazlarni yuzaga chiqarishda kompyuter dasturlaridan unumli foydalanilsa va mavjud nazariy manbalarning amaliyotda qo'llash mexanizmi yaratilsa;

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Nashryot uyi tasvir". Toshkent-2021. 52-bet

2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga qoramiz. "O'zbekiston". Toshkent-2017. 488-bet.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston". Toshkent-2017. 48-bet
4. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. The role and content of technology in the education system . Modern views and research – 2021 International scientific and practical Conference ISBN 978-1-83853-487-5.
5. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. Using the Corel Draw computer program to develop students' creative abilities through drawing. Multidiscipline proceedings of digital fashion conference-2022. ISSN 2466-0744 Republic of Korea, Seul.
6. Fakhreddinov M. Opportunities and prospects for using the Auto cad program in the education system. // Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers. Collection of scientific articles. - Samarkand: Sam SU, 2019. Pages 152-155.